



## Qo'shma gapda presuppozitsiya

**Najmiddinova Marjona Qiyomiddin qizi**

O'ZMU O'zbek filologiya fakulteti, 4 - kurs

[Marjonanajmiddinova17@gmail.com](mailto:Marjonanajmiddinova17@gmail.com) +998910060210

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada pragmalingsvistika va qo'shma gaplar orqali yuzaga keladigan presuppozitsiya yoritilgan bo'lib, o'zbek tilidagi qo'shma gaplarning presuppozitsiya xususiyatlari ba'zi misollar orqali tahlil qilingan.

Tahlil qilishda Abdulla Qahhorning "O'g'ri" va G'afur G'ulomning "Mening o'g'rigina bolam" hikoyalardan foydalanildi. Maqolada hikoyalardagi qo'shma gaplari orqali yuzaga keladigan presuppozitsiyalar ko'rib chiqildi.

### ANNOTATION

In this article, pragmalinguistics, presupposition arising through conjunctions are highlighted, and presuppositional features of conjunctions in the Uzbek language are analyzed through some examples.

In the analysis, Abdulla Qahhor's "Thief" and Gafur Ghulam's "My son of a thief" stories were used. The article considered the presupposition that occurs through compound sentences in stories.

**Kalit so'zlar:** pragmatika, tag ma'no, presuppozitsiya, implikatsiya, qo'shma gap, yoyiq va yig'iq mazmun, nolisoniy omillar.

### Kirish

Hozirgi kunda ta'lim va tilshunoslik sohasida o'z yechimini topishini kutayotgan masalalar ko'p. Pragmalingsvistika sohasidagi masalalar ham shular jumlasidandir.

Oxirgi yillarda til va nutq tizimlariga bir xil tegishli bo'lgan pragmalingsvistika predmetini o'rganishga bag'ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Biroq hali bu sohada bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ham talaygina. Butun jahon tilshunosligida pragmalingsvistik, kognitiv tilshunoslik tadqiqotlari taraqqiy etayotgan bir paytda, o'zbek tilshunoslari ham bu sohalardan chetda qola olmaydilar.

So'ngi yillarda mamlakatimizda tilshunoslik fani taraqqiyoti ana shu yo'nalishda bormoqda. Shuning bilan bir qatorda lisoniy hodisalarning kommunikativ voqelikda sodir bo'luvchi pragmatik xususiyatlari, ularning inson faoliyatida muhim o'rin egallashini ta'minlovchi ko'rsatkichlarni aniqlashga yo'naltirilgan tadqiqotlar ko'lami tobora kengayib bormoqda. Vaholanki, ushbu ko'rinishdagi tuzilmalar o'z sintaktik, vazifaviy va kommunikativ xususiyatlariga ega bo'lib, ular nutqiy muloqot matnlarida turli ma'no va pragmatik mazmun egasi sifatida faollashdilar.

Bugungi kunda pragmatika sohasining til sathidagi ahamiyati tilning mohiyatini belgilaydigan tejamlilik tamoyillari bilan belgilanadi. Ma'lumki, pragmatika dastlab falsafa tarkibida, so'ng mantiq ilmida keyinchalik esa tilshunoslik sohasiga ko'chgan va shu sohalar tarkibida o'rganilgan va hozirgacha o'rganilib kelinayotgan soha sanaladi.



Matnda soʻzlovchi nazarda tutgan axborot har doim ham verbal ifoda tarkibida toʻliq maʼnoda oshkora bayonga ega boʻlavermaydi. Koʻpincha oshkora bayon qilinmagan, ammo soʻzlovchi ichki maqsadi aks etgan yashirin mazmun koʻrinishlarini matn mazmuniy strukturasi bilan ilgʻab olish tinglovchi, nutq ishtirokchilariga katta masʼuliyat yuklaydi. Buning uchun soʻzlovchi, tinglovchi hamda nutq ishtirokchilari nutq vaziyati va sotsial kontekstdan toʻliq xabardor boʻlish bilan birga verbal ifodaning mazmuniy tuzilishidagi nozik ifoda qirralarini anglash uchun oʻsha tilga xos maʼno ottenkalarini bilishi shart. Maʼlumki, har qanday matnda axborot soʻzlovchining ichki maqsadi boshqaruvida ikki mazmuniy koʻrinishdan iborat boʻladi. Bular yoyiq va yigʻiq mazmun shakllaridir. Bunday mazmun shakllari soʻzlovchining kommunikativ niyati bilan bogʻliq ravishda matnning u yoki bu qismlarida namoyon boʻladi. Axborot bayon etishning yoyiq shakllariga xos ifoda imkoniyatlari xilma-xil boʻlganidek, yigʻiq yashirin ifoda usullari xam turlichadir. Yigʻiq-yashirin axborot kontekstlari turlicha shakllardan iborat boʻlganligi uchun unga nisbatan lingvistikaga oid nazariy adabiyotlarda “bir umumiy tushunchani ifoda etuvchi umumiy yashirin (implikasiya) atamasini qoʻllaydilar. Bu atama, asli, mantiqshunoslik yoʻnalishi bilan bogʻlik boʻlib, nolingvistik kategoriya sifatida namoyon boʻlgan” (XAKIMOV, 2001, 28-bet). Keyinchalik esa tilda pragmatika yoʻnalishining yangi tarmoq sifatida shakllanishi bilan umumiy yashirin (implikasiya) va unga yondosh boʻlgan atamalar oʻz lingvistik maqomiga ega boʻla boshladi. Tilda bunday xilma-xil atamalarning paydo boʻlishi ijobiy hodisa sifatida tadqiqotchidan ularga xos aniq taʼriflar berishni talab qiladi. Yirik tilshunos olim I.V.Arnold yashirin axborot koʻrinishlarini uslubiy aspektda tadqiq va talqin etadi. Uningcha, verbal ifoda vositasi bilan aytib ulgurilmagan va soʻzlovchi tomonidan ishora qilingan yashirin maʼnolar stilistik obekt sifatida qaralishi shart. Umumiy yashirin mazmun koʻrinishlariga xos bunday qarash bizni qoniqtirmaydi. Bizningcha, yashirin maʼnoning ifoda imkoniyatlari toʻliq maʼnoda soʻzlovchining xususiy xohishiga koʻra namoyon boʻlishining oʻzi bu yoʻnalish sof maʼnoda lingvistik pragmatikaning obyekti deb qaralsagina mutlaqo toʻgʻri boʻladi.

Matn semantikasi bilan bogʻliq muammolarning oʻrganilishi pragmatikaning shakllanishiga katta turtki boʻldi. Pragmatikaning yoʻnalishlaridan biri boʻlgan presuppozitsiya haqidagi qarashlar nemis mantiqshunosi G.Frege tomonidan ilgari surilgan. Uning taʼkidlashicha, presuppozitsiya hukmning tabiiy asosidir. Masalan, “Kepler bechoralikdan olamdan oʻtdi”, “Kepler bechoralikdan olamdan oʻtmadi” gaplarida “Kepler” degan odamning yashaganligi haqidagi hukmga tabiiy asos mavjud. G.Frege fikricha, asosiy hukm koʻpincha boshqa yashirin hukm bilan birga keladi. U mavjudlik bildiruvchi ikkinchi darajali yashirin hukmnigina presuppozitsiya hisoblaydi. (Nurmonov, Mahmudov, 2007, 83-bet).

Tilshunoslikda presuppozitsiya termini ostida muayyan jumla tarkibida bevosita ifodalanmagan, yashirin holda aks etgan maʼno tushuniladi. Presuppozitsiya tushunchasi kontekst (ushbu til birligining lingvistik qurshovi) va vaziyat (ushbu jumlaning ekstralingvistik substrati, yuzaga chiqish shart-sharoiti) tushunchalarini oʻz ichiga oladi. Masalan, Bugun instruktorimizni qoldirdim, dada (A.Qahhor) jumlasidagi axborot kontekst bilan bogʻliq. Axborot temasi boʻlgan “shaxmat” kontekstdan maʼlum. Oldingi jumlada gap shaxmat haqida boradi. Shuning uchun yuqoridagi gap “instruktorimiz bilan shaxmat oʻynadim” presuppozitsiyasiga ega. Kontekstdan tashqarida presuppozitsiya uchun yoʻl yopiladi. (Nurmonov, Mahmudov, 2007, 84-bet).



## Asosiy qism

Pragmatika (yunoncha pragma, pragmatos — ish, harakat) — semiotika va tilshunoslikning nutqda til belgilarining amal qilishini o‘rganuvchi sohasi, boshqacha aytganda, muayyan belgilar tizimini o‘zlashtirib, undan foydalanuvchi subyektlarning ayni shu belgilar tizimiga munosabatini o‘rganuvchi fan tarmog‘i.

Pragmatika til belgilarining nutqdagi harakatini o‘rganuvchi tilshunoslikning tadqiqot doirasidir. Lingvistik pragmatika aniq shaklga ega emas. Uning tarkibiga so‘zlovchi va tinglovchiga, ularning nutq jarayonidagi o‘zaro munosabatiga bog‘liq masalalar majmui kiradi. Pragmatikaning tilshunoslikka munosabati haqida fanda xilma-xil qarashlar mavjud. Ayrim tilshunoslar, chunonchi, V.Dressler “Pragmatika tilshunoslikka aloqador emas” deb yozadi (Safarov, 2008, 61-bet). Lekin pragmatikani tilshunoslikdan batamom uzadigan olimlar sanoqli. Ularning ko‘pchiligi pragmatikaga tilshunoslikning bir oqimi, yo‘nalish maktabi - serqirra til va nutq jarayonlarining alohida bir qirrasini o‘rganishga va tavsif etishga ixtisoslashgan deb biladi. Pragmatikani tilshunoslikning bir sohasi deb talqin qiluvchi olimlar ham "pragmatika nima? Uning tadqiq manbai nimadan iborat? U serqirra nutq faoliyatining qaysi jihatlarini o‘rganadi?" degan savollarga turlicha javob beradilar. Ayrim tilshunoslar pragmatikani lisoniy vositalarining qo‘llanilishida, matndagi munosabatlarga bog‘liq ravishda o‘rganuvchi fan deb hisoblasalar, boshqalar uni ko‘zlagan maqsadni qo‘lga kiritish uchun lisoniy vositalardan foydalanish usullari deb tushunadilar. Bundan tashqari, pragmatikaning semantik informatsion talqini ham mavjud bo‘lib, unda pragmatikaning tadqiq manbai aloqa - aralashuv jarayonining amaliy natijasi, maqsadi va uning amaliy samarasidadir deb baholaydilar.

Presuppozitsiya til birligining “ichki imkoniyati”ni namoyish etadigan hodisa hisoblanadi. Presuppozitsiyada til birligining bevosita kuzatishda berilmagan semantik xususiyati yuzaga chiqadi. Presuppozitsiya ixcham shakllar orqali ko‘p ma‘lumot berishga xizmat qiladi. Shu tariqa gaplarda semantik sintaktik assimetriya paydo bo‘ladi. Presuppozitsiyada nutq ishtirokchilari voqelik haqidagi qo‘shimcha ma‘lumot yashirin ifodasini anglab yetishlari lozim. Bu ma‘lumot ba‘zan gapda aks etgan propozitsiyaga zid xarakterda bo‘lsa, ba‘zan mazkur propozitsiyani semantik jihatdan to‘ldiradi.

Kishilarning o‘zi qurshab turgan olam haqidagi universal bilimlari va til haqidagi ko‘nikmalari natijasida ayrim so‘zlarning leksik ma‘nolarida ham presuppozitsiyaga o‘rin ochilishi mumkin. Masalan, *Men Samarqanddan uchib keldim jumlasida "Samolyotda keldim"* presuppozitsiyasi mavjud. "Uchmoq" so‘zining leksik ma‘nosi va til haqidagi umumiy bilish fondi so‘zlovchilar uchun presuppozitsiyani tushunarli qiladi.

Qo‘shma gap – tuzilishiga ko‘ra sodda gapga o‘xshash ikki va undan ortiq predikativ birlikning intonatsiya va mazmun jihatidan bir butunlik hosil etishi bilan yuzaga keluvchi gap; gapning struktural jihatdan alohida bir turi. Qo‘shma gap tuzilishi va qurilish materialiga ko‘ra sodda gapdan farq qiladi. Sodda gapning qurilish materiali so‘z yoki so‘z birikmalari bo‘lsa, qo‘shma gapning qurilish materiali sodda gaplardir. Sodda gap bitta predikativ asosdan, qo‘shma gap esa ikki va undan ortiq predikativ asosdan tashkil topadi.

Qo‘shma gaplar orqali ham presuppozitsiya yuzaga kelishi mumkin. Qo‘shma gap mazmunining tinglovchi tomonidan anglashilish muammolari pragmatik jihatdan tahlili amalga oshiriladi va qo‘shma gaplar orqali shakllanadigan presuppozitsiya ko‘rib chiqiladi.



Bunga misol tariqasida Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” va G‘afur G‘ulomning “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasidagi qo‘shma gaplari orqali yuzaga keladigan *presuppozitsiyalarni* ko‘rib chiqamiz:

*Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin. Bir qop somon, o‘n-o‘n beshta xoda, bir arava qamish-uy, ho‘kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo‘yish kerak bo‘ladi.* Birinchi qo‘shma gapni tahlil qiladigan bo‘lsak, unda yashiringan axborot o‘sha paytdagi aholining yashash sharoiti, ho‘kizi yo‘qolguncha, uyi kuygani yaxshi. Ho‘kizning yo‘qolishi dehqon uchun juda og‘irligi, bu holat juda yomonligi ifodalangan. Va yana dehqonning holatini ham bilib olsak bo‘ladi. Ikkinchi gap birinchi gapning izohi sifatida keltirilgan. Ya‘ni ho‘kiz olish oson emasligi, o‘sha davr uchun bu juda qiyinligi, inson o‘zini qornini to‘ydira olmayotgan bir paytda, ho‘kizni boqish juda qiyin edi. Shu sababli: “*Dehqonning uyi kuysa kuysin, ho‘kizi yo‘qolmasin*” – deb berilgan hikoyada.

*Qobil bobo ro‘para bo‘lganda amin og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi.* Bu qo‘shma gap orqali yuzaga kelgan *presuppozitsiyadan* bu amaldorning bo‘kkanicha miriqib ovqatlangani, kunlari yeb-ichish, maishat bilan o‘tganidan semirib, baqbaqasi osilib ketgani axboroti anglashiladi. Qobil bobo iltijo qilib, qo‘l qovushtirib turgan paytda uyat, andishani unutkan amin “*og‘zini ochmasdan qattiq kekirdi, keyin bag‘baqasini osiltirib kuldi*”, – bu bilan u kambag‘allarning ustidan kulib, bepisandlik bilan qaraganligi, cholni bemalol masxaralab, odob-axloq qoidalarini bir tomonga yig‘ishtirib qo‘yganligini tushunib olishimiz mumkin.


*Qobil bobo yor-do‘stlari bilan kengashdi — pristavga puldan boshqa nima olib borsa bo‘ladi? Ma‘lum bo‘ldiki, uni begim deguncha kishining beli sinar ekan.* Bu gapda keltirilgan maqoldan shu anglanadiki: yuqori mansabdagi insonni rozi qilish uchun ancha narsalar qilish kerak, faqat pulning o‘zi ham unga kamlik qiladi. Uni rozi qilaman deguncha kambag‘alning beli sinib ketishi hech gap emas.

*Paxtafurush cholning holiga ko‘p achindi va yerini haydab olgani bitta emas, ikkita ho‘kiz berdi, lekin "kichkinagina" sharti bor.* Bu gap orqali yuzaga kelgan *presuppozitsiya* ikki suhbatdosh uchun ham tushunarli. Paxtafurush ham cholga shunchaki yordam bermagan, uning ham o‘z sharti bor va bu shart esa kuzda aniq bo‘ladi, chol shartni bajaraman deguncha ancha yelib-yugurishiga to‘g‘ri keladi.

*Odamlar dod ovozig a‘rganib qolgan: bironni eri uradi, bironning uyi xatga tushadi...* gapini misol ketiramiz. Bu yerda *presuppozitsiya* sifatida bunday holatlar har doim bo‘lishi nazarda tutilgan va bu axborot *presuppozitsiya* orqali o‘quvchiga yetkazilmoqda. Ya‘ni dod, baqir - chaqir bu zamonda odatiy holat va bu baqir-chaqirlarga hech kimga e‘tibor bermay ham qo‘ygan. Bu gap orqali bizga mana shunday axborot yetkazib berilyapti.

*O‘ynashmagin arbob bilan – seni urar har bob bilan.* Hikoyada keltirilgan bu maqol orqali nimani anglashimiz mumkin? Bundan shuni anglash mumkinki: arbobning turli hiyla nayranglaridan ehtiyot bo‘l, nima qilsang ham befoyda. Uning xiyla-nayranglari ko‘p, nima qilsang ham unga teng kela olmaysan.

*O‘zi o‘rab, o‘zi chirmab oladigan joy chiqmasa, bularga kimning ham ko‘zi uchib turibdi deysan.* “Mening o‘g‘rigina bolam” hikoyasida berilgan bu gapdan ularning ahvoli juda nochorligini, agar kuyov tomon to‘y xarajatlarini ko‘tarib, qizni olishmasa, ularning qiz uzata olmasligini tushunib olishimiz mumkin. “Bularga kimning ko‘zi uchib turibdi deysan”, – degan



so'zlardan, nafaqat, ularning ahvoli balki o'sha vaqtda ko'pchilik shunaqa og'ir ahvolda ekanligini, hech kimga xarajat kerak emasligi, oilalarga boshqa bir a'zo ham ortiqchalik qilishini anglaymiz.

*Rahmonxo'jaga xo'rozni olib borib bergan edim, ishni bosdi-bosdi qilib yubordi.* Ushbu gapda presuppozitsiya orqali "Rahmonxo'janing poraxo'rliqi" axboroti ifodalangan. Bitta xo'roz bilan uning ishini hal qilib berilganligini ham bilib olishimiz mumkin. Bitta qo'shma gap orqali bir nechta presuppozitsiya shakllanishi mumkin.

*Allazamonlar uyimizda odamlar ko'p edi, katta qozonda osh ichardik.* Bu gap orqali qanday axborotni bilib olish mumkin? Hozirda bu oilada odamlar kamligini, lekin qachonlardir oilada odamlar soni ko'p bo'lganini, o'sha payt katta qozonda taom qilinganini, endi unday katta qozondan foydalanmay qo'yishganligini bilib olish mumkin.

Presuppozitsiyaning yashirin ifodalanish xususiyatini, presuppozitsiya orqali yashirin axborot anglashilishini berilgan misollarda ko'rishimiz mumkin.

### Xulosa

Presuppozitsiya tilning pragmatik aspektini namoyon etuvchi gapda nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda yashirin tarzda reallashuvchi hodisa. Presuppozitsiya lisoniy va nolisoniy omillar bilan bog'liq hodisa. Uning to'g'ri tushunilishida nolisoniy omillar ham yordam beradi. Ya'ni nutqiy vaziyat, tinglovchi va so'zlovchiga oldindan ma'lum bo'lgan bilimlar, kontekst, nutq egalarining til ko'nikmalari. Bu nolisoniy omillar yordamida gap sintaktik strukturasi aks etmagan, yashirin ifodalanuvchi presuppozitsiya oson tushuniladi. Presuppozitsiyani har qanday muloqotning muhim jihati deb hisoblasak bo'ladi. Presuppozitsiya atamasi ortida yashirin axborot anglashiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimov M. O'zbek pragmatik aspekti asoslari. – Toshkent, 2013.
2. Hakimov M. Nutqiy aktlar nazariyasi. – Farg'ona, 2020.
3. <http://library.ziyonet.uz>
4. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. – Toshkent, 2000.
5. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. – Toshkent, 1988.
6. Safarov Sh. Pragmatik nazariya. – Toshkent, 2008.